

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI BO'LISH, BU MAS'ULIYATLI LAVOZIM. YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMI RIVOJI.**

**Qallibekova Zinegul Ataubayevna**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, Taxtako'pir tumani, 8-sonli maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.8153394>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishda kasbiy kompetentlikning ahamiyati va tutgan o'rni ochib berilgan. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quvchilar bilan ishlash jarayonida pedagogik mahoratini ishlab chiqishi hamda ta'lim - tarbiya berishda pedagogik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilingan. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, so'nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish borasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar xususida mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Mahorat, pedagogik mahorat, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, qobiliyat, pedagogik qobiliyat, individual psixologik kompetentsiya, pedagogik yondoshuv, Ta'lim, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Maktabgacha ta'lim, Davlat ta'lim standarti, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, huquqiy hujjatlar.

Ma'lumki, jamiyat rivoji, shaxs kamolotida ta'lim katta ahamiyatga ega. Shu bois rivojlanish yo'lini maqsad qilib qo'ygan har bir mamlakat ta'lim sohasini isloh qilish, uni zamonaviy standartlarga moslashtirish borasidagi ijtimoiy vazifalarga muntazam e'tibor qaratadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonlarini va u bilan bog'liq sohalarga oid munosabatlarni tartibga solish borasida normativ-huquqiy me'yor, hujjat, dasturlarning ishlab chiqilishi asosiy ustuvor vazifa hisolanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor qaratilib, sohani rivojlantirish, yoshlarni ham ma'nan ham jismonan yetuk kadrlar etib voyaga yetkazish maqsad qilib qo'yildi. Shu maqsadda 1992-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ochib berdi.

Ushbu qonunlari kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi bo'lishi bilan birga, uning milliy modelini, amalga oshirish mexanizmini ham yaratdi. Mamlakatda 12 yillik majburiy bepul ta'lim olish joriy etildi. "Ustoz", "Umid", "Kamolot", "Ulug'bek" va boshqa jamg'armalar tashkil etildi. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni alohida o'qitish va tayyorlash, ularni xorijiy davlatlarga yuborib, bilim va malakalarini yanada oshirishga e'tibor qaratildi. Istiqloq yillarida amalga oshirilgan shu va shu kabi bir qator ishlar natijasida o'z milliy ta'lim modelimizga, tizimimizga ega bo'ldik. Biroq ta'lim ham hamma vaqt zamon bilan hamnafas bo'lishi, jahondagi ilg'or yangiliklarga, o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishi muhim vazifadir.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratib, rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foydalanish, iqtidorli, salohiyatli yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ta'limning eng quyi bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish borasida bir qator muhim vazifalarni ilgari surdi. Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada

rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida 2017–2021-yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir ustuvor vazifalar belgilab berildi. Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham o'rin olgan edi. O'tgan yillar mobaynida Farmonga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, shart-sharoitlarini tubdan yaxshilash, pedagog va mutaxassislarining malakasini yuksaltirish, maktabgacha ta'limga bolalar qamrovini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Xalq ta'limi vazirligi jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, teran fikr va qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, jamiyatda ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirildi.

Mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni zamon talablari asosida takomillashtirildi. Soha rivojlantirish masalalariga doir bir qator qonun, qarorlar qabul qilindi. 2019-yil 30-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4467-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, Prezident qarorlari, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimin 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Prezident farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori shular jumlasidan.

Ayniqsa, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 2020-yil 23-sentabrda O'RB-637-son yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish borasida "Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir" deb ta'kidlaganligi ta'lim sohasini rivojlantirish masalasi davlat siyosating asosiy bo'g'inlidan biri ekanligini aytadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-

oktyabrda farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga binoan intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar belgilab olindi.

2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonda ham ta'lim sohasini rivojlantirishga doir bir qator maqsad, vazifalar belgilab berilgan. Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Strategiyaga muvofiq: Maktabgacha ta'lim sohasida qamrov darajasini 80 %ga yetkazish; xususiy sektorni jalb qilgan holda 7 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ochish;

Xalqa ta'limi sohasida xususiy maktablar sonini ko'paytirish; malakali o'qituvchilarning oylik maoshini bosqichma-bosqich 1000 dollar ekvivalentiga yetkazish; 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish;

Oliy ta'lim sohasida qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish; 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash; "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygozlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish kabi maqsadlar ko'zda tutilgan. O'tgan yillar mobaynida oliy ta'lim, professional ta'lim, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirildi;

Oliy ta'lim muassasalari, va oliy ta'limga ega kadrlar soni va salmog'i ortdi;

Mavjud ehtiyojlarni inobatga olgan holda xalq ta'limi va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash borasida samarali ishlar amalga oshirildi.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'qituvchilarning xilma - xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Uzlusiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini oshirish va o'zini doimiy rivojlantirib borishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar bo'lishi kerak. Pedagogning o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarishi, ota - onalar va bolalarning izzat - hurmatiga sazovor bo'lishi uchun ham unda qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning

hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z - ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borishi lozim.

«O'qituvchi o'z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlashni o'rganmog'i lozim»,- degan edi Abduraxmon Jomiy.

O'z bilimlarini mustaqil oshirish uchun quyidagi bo'limlardan iborat individual reja tuzib olishlari tavsiya etiladi.

G'oyaviy — siyosiy saviyani oshirish.

Ilmiy — nazariy bilimni oshirish.

Metodik bilim va mahoratni oshirish.

Pedagogik va psixologik nazariyani yanada puxta o'rganish.

O'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagi metod birlashmalar xizmati katta. Metod birlashmalarda o'qituvchilar fikr almashadilar: o'zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o'qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg'or tajribalarni keng ommalashtiradilar.

Pedagogik ijodkorlik manbai — bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish vaqti va usullari, uslub va vositalaridir, Ular vositasida o'quv — tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o'quv tarbiya jarayoniga sifatli o'zgarishlar kiritadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Fan — texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarini egallaydi.

Maktabda pedagogik mehnatni ilmiy asosda tahlil qilish muammosi ko'pincha darsda vaqtdan unumli foydalanish, sinfdan tashqari tadbirlardan va o'qituvchi tarbiyachilarning ijtimoiy topshiriqlarini tartibga solishdan iborat deb qaraladi.

Ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati ular o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqillik ko'rsatish uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisoli o'zlari olayotgandek tuyulsa, mazkur metod samarali bo'ladi. Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, yning psixologik - pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo'ladi.

Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi ta'lim metodlarini takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday tajribani umumlashtirish va yoyish o'quv jarayoni sifatini oshirishning muhim shartidir.

O'qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ishlarining chinakam ustalariga aylanadilar. Sog'lom fikr yurituvchi har bir kishi mahoratli tarbiyachi bo'la oladi, mahoratga tajriba hamda fikr yuritish orqali erishiladi.

Har bir o'qituvchi pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim - tarbiyasini yanada samarali chiqishi uchun u o'z ustida muttasil ishlashi, bilimni, mahoratini o'stirishi kerak. O'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab ularning ko'ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi kerak. Muomala madaniyati o'zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasidan namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi tildir. Xalqimizdan shunday naql bor: "Bola shirin so'zning gadosi". Bas shunday ekan tarbiyachi muomalasida juda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: "Shirin so'z kungillar uchun bamisli asaldir".

#### **XULOSA:**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ta'lim sohasi mustaqillik yillaridan to bugungi kunga qadar bosqichma-bosqich jahon ta'lim standartlariga moslashib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasida xususiy maktabgacha ta'lim, maktab, universitetlarning ochilishi sohada raqobat muhitining yaratilishiga, o'quv jarayonlari jaxon standartlariga javob beruvchi o'quv qo'llanmalar o'quv dasturlarining yaratilishiga olib keladi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi va mahoratini oshirib borishi, zamon talablariga javob bera oladigan zamonaviy o'qituvchi bo'lishi davr talabidir.

#### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasining –Ta'lim to'g'risida||gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston. 1997.
1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya.– —Fan va texnologiya|| nashriyoti, T.: 2013- y 3. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.S